MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHI-PEDAGOGLARIDA

kasbiy kompetentlikning takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika,psixologiya va ta'lim texnologiyalari
kafedrasi katta o'qituvchisi
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna
@emalmamadaliyevamarkxobo
+998937983071

Annatasiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish haqida

Annotations: V state rech idet o povyshenii professionalnoy kompetentnosti pedagogov-pedagogov doshkolnoy obrazovatelnoy organizatsii.

Аннатация: В статье речь идет о повышении профессиональной компетентности педагогов-педагогов дошкольной образовательной организации.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagog - mutaxassis, ilg'or pedagogik texnologiyalari, kreativ shaxs.

Ключевые слова:Компетентность, профессиональная компетентность, педагог-специалист, передовые педагогические технологии, творческая личность.

Base words: Professional competence, teacher-specialist, advanced pedadodical technologiescreative personality.

Hozirgi davrda shiddat bilan rivojlananib borayotgan davlatimizda, ilm-fan texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida, erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi

o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi - ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi asosida ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimini yangi islohatlar asosida rivojlantirish masalasiga aloxida e'tibor karatilmoqda. Jumladan 2030 yilgacha maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan jarayonlarni takomillashtirish masalalari Yunesko tomonidan belgilandi va dolzarb masala ekanligi alohida qayt etib o'tildi.

Rossiya federal davlat ta'limi standartida ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kasbiy kompitetnligini rivojlantirish masalalariga talab ortib bormoqda.

Jahon miqyosida amalga oshirilayotgan islohatlar va talablar hamda tub o'zgarishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kasiy kompitentligini shakllantirish va rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g'oyalar, xalqaro tajribalar, yangi istiqbollar, mehnat bozori talablari asosida mazkur jarayonni sifatini oshirish, o'qitishning yangi metod va uslublarini joriy qilish, zamonaviy texnika va texnologiyalar talab qiladigan yangi ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, doimiy kasbiy malakasini oshirish zaruriyati ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish,uni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga olib kirish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohatlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim

tashkilotlari tarmog'ini kengayirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish " kabi qator masalalar aloxida ta'kidlab o'tildi.Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbyachilarini kasbiy tayyorgarligini ta'minlash,ularni davlat talablariga mos kasbiy kompitentligini shakllantirish va rivojlantirish tizimini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim shakllarini joriy etish, pedagog va mutaxassislarning ilg'or pelagogik texnologiyalr bo'yicha kasbiy bilimlari va tayyorgarligini oshirish muhim sanaladiBozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nimaq Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadiq Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z

tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi



Pedagogning kasbiy kompetentligi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi.



Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zi (inglizcha "create" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda

bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi " - deb ta'rif beradi.

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ talaba bo'lish – bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa talabalar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash, va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham shaxsning, xususan talabaning kreativlik qobilyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko'pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi.

Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo'lishi lozim. Kelajakda ijodiy qobiliyatlardan foydalanish uchun ta'lim jarayoniga ta'lim jarayoniga maxsus topshiriqlarni kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuxamedov R. va b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.:Iste'dod, 2008.
2. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
3. Avliyaqulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 164 b.